# SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-maxsus son (5-jild)

2025

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V5SI10Y2025

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ S/10 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

**BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**TAHRIR HAY'ATI:**

*07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

*08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b,;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent,;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

*09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

*10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

*12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat Gʻaybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Joʻrayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom oʻgʻli — yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

*13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD).

*19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

*22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Poʻlatovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Boʻtayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

**OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis**: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 10-maxsus son (noyabr, 2025). - 450 bet.

**MUNDARIJA**

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Ismoilov Ubaydulla Mamat o'g'li*
SUYIRLITEPA YODGORLIGIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR
VA TOPILGAN AYRIM TANGALAR TAHLILI ........ 11-19

*Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna*
O'ZBEKISTON ELEKTR ENERGETIKA SANOATI RIVOJIDA D.P.ROZITNING O'RNI ........ 20-24

*Umarov Sardor Yakubovich*
XX ASRNING OXIRI-XXI ASR BOSHIDA GERMANIYA DAVLAT MOLIYASI VA
BIRLASHTIRISHNING MOLIYAVIY OQIBATLARI........ 25-31

*Eshonkulov Shaxzod Eshkuvatovich*
AHOLINING LOKAL-ETNOGRAFIK GURUHLARI VA ULAR BILAN BOG'LIQ
TOPONIMLAR ........ 32-37

*Olimov Nodirbek Anvarjon o'g'li*
QO'QON XONLIGI ETNIK HOLATIGA OID MA'LUMOTLAR
("TARIXI SHOHRUXIY" ASARI MISOLIDA) ........ 38-41

*Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Daminova Mashhuraxon*
DAVRIY MATBUOT VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI........ 42-45

*Ahmedov Bahodir Ismailovich*
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASINING
TARIXIY BOSQICHLARI ........ 46-55

*Ravshanov Mahmud*
ALISHER NAVOIYNING ASARLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH MAHORAT: YECHIMLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUV MASALALARI...... 56-59

*Asadova Ra'no Baymanovna*
O'ZBEKISTON VA HINDISTON O'RTASIDAGI ILM-FAN HAMKORLIGI TARIXI
VA ZAMONAVIY BOSQICHLARI ........ 60-64

*Qurbonova Marg'uba*
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TIL SIYOSATI EVOLYUTSIYASI
VA MILLIY IDENTITETNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI
(1991–2025 YILLAR TAHLILI) ........ 65-68

*Kamolova Habiba Muhammadiyevna*
SOBIQ SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA SHAHRISABZ IQTISODIY
INFRATUZILMASIDAGI ZIDDIYATLI O'ZGARISHLAR ........ 69-74

*Ergashev Umar Kuziyevich*
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI G'UZOR BEKLIGI AHOLISI
TARIXI (HARDURI ETNOGRAFIK GURUHI MISOLIDA) ........ 75-79

*Ergashev Akhror*
THE FACTORS THAT HAVE LED TO INTERNAL CRISES IN PAKISTAN,
AND THE SUBSEQUENT STRENGTHENING OF THE MILITARY'S ROLE
IN THE COUNTRY'S POLITICAL LIFE ........ 80-88

*Qurbonov Abbos Shonazarovich*
SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA ARXIV HUJJATLARINI TAHLIL QILISH:
YANGI TARIXIY YONDASHUVLAR ........ 89-93

*Esanova Nilufar*
CHET EL INVESTITSIYALARINING O‘ZBEKISTON SANOAT SIYOSATIDAGI O‘RNI:
XALQARO HAMKORLIK TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL
(QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) ........ 94-97

*Askarxodjayev Yaminxon Muxammedovich*
“MAORIF VA O‘QUTG‘UCHI” JURNALI “MEHNAT MAKTABI NIMA DEMAK?”
MAQOLASIDA O‘ZBEKISTON SSRDA AMALIY TA’LIM G‘OYASINING DASTLABKI
NAZARIY ASOSLARI (1925-YIL, 1-SONI MISOLIDA) ........ 98-105

*Ismatova Zulfizar*
O‘ZBEK MILLIY KIYIMLARINING TAVSIFI VA TASNIFI ........ 106-114

*Abdualimova Durdona Shavkat qizi*
G‘AZNAVIYLAR QUDRATINING YEMIRILISH NUQTASI ........ 115-125

*Xadjamuratova Matlyuba Xoshimovna*
YOSHLARNI IJTIMOIY HIMOYA QILISH – TADQIQOTLARNING MUHIM YO‘NALISHI .... 126-129

*Elboyeva Shaxnoza*
ILMIY RAHBARLIK VA INNOVATSION BOSHQARUVDA
O‘ZBEK AYOL OLIMALARINING ROLI ........ 130-134

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna*
O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA GEOLOGIYA VA YENGIL SANOAT TARMOQLARI
O‘RTASIDAGI INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI ........ 135-142

*Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o‘g‘li*
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA
SANOAT TARKIBIY O‘ZGARISHLARIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR
(XORAZM VILOYATI MISOLIDA) ........ 143-151

*Sharipova Gulchehra Farhod qizi*
IMPROVING THE PRACTICAL MECHANISM OF EDUCATION QUALITY
MANAGEMENT BASED ON FOREIGN EXPERIENCE:
IN THE CASE OF JAPAN ........ 152-157

*Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o‘g‘li*
MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MAHALLIY BOSHQARUV TIZIMLARIDA SUN’IY
INTELLEKT QO‘LLASH TAJRIBASI: O‘ZBEKISTON UCHUN XULOSALAR ........ 158-162

*Sharopov Nurmuhammad Bobirovich*
DAVLAT SIYOSATI VA YASHIL IQTISODIYOT:
SUBSIDIYALAR, SOLIQ VA RAG‘BATLAR ........ 163-166

*Ibragimov Nodir Nusriddinovich*
AGRAR SEKTORNI INNOVATSION RIVOJLANISHNI TA’MINLASHDA EKONOMETRIK
PROGNOZLASH USLUBLARINING TAKOMILLASHTIRILGAN YONDASHUVLARI ........ 167-174

*Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich*
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH HAJMINI OSHIRISHDA BOZOR MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH ........ 175-179

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Raupova Ra'no Sohibovna*
GLOBALLASHUV VA AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IBN SINO MEROSIDAN FOYDALANISH ........ 180-184

*Mamayusupov Umidjon Kurbanovich*
JAMIYATNI BOSHQARISHDA ILMIY BASHORATNING METODOLOGIK VA PROGNOSTIK VAZIFALARI ........ 185-189

*Ergashev Ozodbek Shavkatovich*
YANGI DAVR G'ARB FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI ........ 190-194

*Alimova Shaxnoza Xamidovna*
NOGIRONLIGI BO'LGAN YOSHLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI TO'LAQONLI ISHTIROKI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR ........ 195-205

*Tolipov Baxtiyor*
YOSHLAR IQTISODIY FAOLLIGINING TARIXIY GENEZISI VA RIVOJLANISH OMILLARI 206-211

*Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich*
AXBOROT TIZIMLARI, MAHSULOTLARI VA XIZMATLARIDAN AXBOROT BIZNESI MUHITINI YARATISH ASOSLARI ........ 212-218

*Abdullayeva Ziyoda Nabiyevna*
RAQAMLI JAMIYATDA AXLOQIY ISHONCHNI AVTOMATIK BAHOLASH TIZIMI ........ 219-225

*Yekubova Mavluda Iskandarovna*
RAQAMLASHGAN JAMIYATDA KOMMUNIKATIV REALLIK VA KOMMUNIKATIV RATSIONALLIK ........ 226-232

*Madraximov Atabek Abduraximovich*
EKOLOGIK TARBIYA HAMDA BILIM – EKOLOGIK MADANIYAT POYDEVORI ........ 233-238

*Рахматов Нуриддин Негкадамович*
МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ В ТВОРЧЕСТВЕ ХУСЕЙНА ВОИЗА КАШИФИ ........ 239-243

*Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna*
YOSHLAR ORASIDA GIYOHVAND MODDALAR VA SPIRTLI ICHIMLIKLARGA QIZIQISHNING IJTIMOIY SABAB VA OQIBATLARI ........ 244-247

*Xudoykulov Azamat Beshumovich, Saidov Shomahmud Azamat o'g'li*
INSON FALSAFASI ........ 248-252

*Baratova Madina Xasanovna*
KAMBAG'AL OILA FARZANDLARINING IJTIMOIY FAOLLIGINI TA'MINLASH: INDIVIDUAL VA IJTIMOIY OMILLAR ........ 253-259

*Ismoilov Maxamadixon Isroilovich*
IQTISODIY ADOLAT VA FAROVONLIK FALSAFASI: ETIK TAMOYILLAR VA IJTIMOIY NOMUTANOSIBLIKLAR TAHLILI ........ 260-269

*Obidov Asliddin Shavkatovich*
COSMIC UNITY AND MORAL CONSCIOUSNESS: REINTERPRETING FARGHANI'S COSMOLOGY THROUGH CHITTICK'S LENS ........ 270-274

## 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

*Kaniyazova Jupargul Orinbayevna*
THE RETROSPECTIVE PLOT IN THE SHORT NOVELS OF CH.AITMATOV .......................... 275-280

*Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна*
СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ СРАВНЕНИЯ НА ЛЕКСИЧЕСКОМ, СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНОМ И МОРФОЛОГИЧЕСКОМ УРОВНЯХ (НА МАТЕРИАЛЕ РАССКАЗОВ А. И. КУПРИНА) .......... 281-285

*Sanaqulova Fayoza*
REKLAMA MATNLARIDA METAFORA TURLARI VA YONDOSH HODISALAR .................... 286-289

*Ruzibayeva Aziza Kahramanovna*
THE THEME OF EXILE AND ALIENATION IN BYRON’S POETRY .......................................... 290-293

*Norqobilova Nigora Uralovna*
O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI OLQISH VA QARG‘ISH SO‘ZLARNING LINGVOMADANIY SHARTLANISHI .......... 294-298

*Ahmedova Fayyoza Rashidovna*
O‘ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM RIVOJLANISHINING INFRATUZILMAVIY, RAQAMLI VA SOTSIOMADANIY DRAYVERLARI .......... 299-306

*Elmuratova Zamira Khodjamuratovna*
SOME PECULARITIES OF ENGLISH, KARAKALPAK AND TURKMEN PROVERBS ABOUT LABOR .......... 307-310

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

*Sultanova Sabohat Alisherovna*
FURTHER DEVELOPMENT OF THE INSTITUTE FOR ASSESSMENT OF REGULATORY IMPACT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AS AN ELEMENT OF "SMART REGULATION" .......... 311-317

*Qushboqov Shohrux Xasan o‘g‘li*
JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARINING TURLARI VA ULARNING FUQAROLIK-HUQUQIY MAQOMINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI BORASIDA AYRIM MULOHAZALAR .......... 318-328

*Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich*
JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOIY REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH ............... 329-339

*Xushvaqtov O‘tkir Temirovich*
VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN JINOYATLAR PROFILAKTIKASI BO‘YICHA MILLIY QONUNCHILIK NORMALARI TAHLILI ..................... 340-346

*Leonid Khvan Borisovich, Zilola Gulimova*
THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN PUBLIC ADMINISTRATION................... 347-353

*Normatova Shirin Abdulnabiyevna*
XOTIN-QIZLARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIKKA QARSHI KURASH BO‘YICHA MILLIY QONUNCHILIKDAGI BO‘SHLIQLAR TAHLILI .......... 354-362

*Каюмова Асаля Султномуродовна*
ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫЕ РЕФОРМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ:
ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ........ 363-368

*Abdullayeva Sabohat Asatullo qizi*
KRIPTOAKTIVLARGA OID JINOYATLAR VA XALQARO HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ... 369-377

*Imomniyozov Doniyorbek Baxtiyor o‘g‘li*
VIRTUAL MULKNING HUQUQIY REJIMI: SUI GENERIS YONDASHUV ........ 378-392

*Amonov Zavqiddin*
ISLOM HUQUQIDA MULKIY HUQUQLAR PARADIGMASI ........ 393-400

*Saidmuradov Najmiddin Nabijonovich*
YUQORI INSTANSIYA SUDLARIDA PROKUROR ISHTIROKINING
JINOYAT-PROTSESSUAL JIHATLARI ........ 401-405

*Makhmudjanova Mokhirakhon*
ANALYSIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCE IN ENSURING GENDER EQUALITY........ 406-411

*Нормуродова Азиза Азимжон кизи*
СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ:
ПОНЯТИЕ, ФОРМЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ........ 412-418

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

*Utkirov Nusrat*
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA HARAKAT SIFATLARINI
RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA MUAMMOLI-
MODULLI YONDASHUVLAR ........ 419-424

*Jamolova Shahlo Qobilovna*
BO‘LAJAK FIZIKA FANI O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI DASTURIY
TA’LIM VOSITALARIDAN FOYDALANIB RIVOJLANTIRISH METODIKASI
(“REAL GAZLAR. MOLEKULALARARO O‘ZARO TA’SIR. REAL GAZLAR.
VAN-DER-VAALS TENGLAMASI” MAVZU MISOLIDA) ........ 425-428

*Rasulova Moxidil*
TIBBIYOT TA’LIMI TIZIMIDA FUNDAMENTAL FANLARNI O‘ZLASHTIRISHDA TALABALAR
BILIMINI BAHOLASHNING ASOSIY SABABLARI VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI ........ 429-438

*Ismailov Oybek Abdurasulovich*
ANESTEZIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA ENTRUSTABLE PROFESSIONAL
ACTIVITIES (EPA) TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB TALABALARGA MALAKAVIY
TA’LIM BERISH ........ 439-445

*Davlatova Nilufar Vosiljonovna*
BO‘LAJAK IQTISODCHI MUTAXASSISLARNING KREATIV IQTISODIY FIKRLASHINI
RIVOJLANTIRISHDA PROBLEMALI VA LOYIHALI O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI ........ 446-449

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 10 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 20 October 2025
**Accepted:** 15 November 2025
**Published:** 30 November 2025

*Article / Original Paper*

# METHODOLOGICAL AND FORECASTING TASKS OF SCIENTIFIC FORECASTING IN PUBLIC MANAGEMENT

**Mamayusupov Umidjon Kurbanovich**
Associate Professor of Tashkent University of
Information Thechnologies named after Muhammad al-Kharizmi
Doctor of Philosophy in Philosophical Sciences (PhD)
E-mail: umamayusupov10@mail.com

**Abstract.** This scientific article is devoted to the study of the methodological and prognostic functions of scientific forecasting in the system of public administration. The article emphasizes that scientific forecasting plays an important role in improving management processes by scientifically determining the future development of social, economic, and political processes in society. The issues of forming theoretical foundations with methodological tasks of scientific forecasting, developing models, as well as developing scenarios for the future with a prognostic task and preventing possible risks in the future were philosophically analyzed.

**Keywords:** forecast, scientific forecasting, futurology, methodology, forecast, society, society management, social processes, social development, social management.

# JAMIYATNI BOSHQARISHDA ILMIY BASHORATNING METODOLOGIK VA PROGNOSTIK VAZIFALARI

**Mamayusupov Umidjon Kurbanovich**
Muhammad al – Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
“Jismoniy madaniyat va gumanitar fanlar” kafedrasi dotsent v.b, f.f.f.d. (PhD)

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqola jamiyatni boshqarish tizimida ilmiy bashoratning metodologik va prognostik vazifalarini oʻrganishga bagʻishlangan. Maqolada, ilmiy bashorat jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlarining kelajakdagi rivojlanishini ilmiy asosda aniqlash orqali boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishda muhim rol oʻynashi ta’kidlangan. Ilmiy bashoratning metodologik vazifalari boʻlgan nazariy asoslarni shakllantirish, modellarni ishlab chiqish, shuningdek, prognostik vazifasi boʻlgan kelajak ssenariylarini ishlab chiqish va kelajakda boʻlishi mumkin boʻlgan xavflarni oldini olish masalalari falsafiy tahlil qilingan.

**Kalit soʻzlar:** bashorat, ilmiy bashorat, futurologiya, metodologiya, prognostika, jamiyat, jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy jarayonlar, ijtimoiy taraqqiyot, ijtimoiy boshqarish.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI10Y2025N29

Zamonaviy jamiyatni boshqarish tobora murakkab boʻlib bormoqda, chunki globallashuv, texnologik inqilob va iqlim oʻzgarishlari kabi omillar kelajakning noaniqligini oshirmoqda. Mazkur sharoitda ilmiy bashorat – jamiyatning rivojlanishini ilmiy usullar asosida oldidan koʻrish – boshqarishning asosiy vazifalaridan biriga aylanmoqda. Shu boisdan jamiyatni boshqarishda ilmiy bashoratning jamiyat boshqaruvidagi metodologik va prognostik vazifalarini sistemali tahlil qilish va ularning amaliy qoʻllanilishini baholash hozirgi davr uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ma’lumki, ilmiy bashoratning metodologik vazifalari nazariy modellarni shakllantirish va tahlil usullarini takomillashtirishni, prognostik vazifalari esa muqarrar va ehtimoliy ssenariylarni ishlab chiqishni oʻz ichiga oladi. Shu boisdan jamiyatni boshqarishda jamiyat taraqqiyotini metodologik va prognostik jihatdan falsafiy tahlil qilish jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta’minlashda ilmiy oʻrganish uchun muhim manba boʻlib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta’minlash, barcha sohalarni rivojlantirish istiqbollari va ustuvor vazifalarini oldindan belgilash hamda kelajakni ilmiy oʻrganishning kuchli mexanizmlari yaratildi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi [1] ishlab chiqildi va kelajakda jamiyatni taraqqiy ettirishning ustuvor vazifalari nazariy jihatdan asoslab berildi. Darhaqiqat, shuni alohida ta’kidlash lozimki, jahon tajribasiga nazar tashlasak, biron-bir jamiyat, davlat ma’lum bir oldindan belgilanmagan maqsadlarsiz yuksak taraqqiyotga erisha olmaydi. Ijtimoiy tizimning hozirgi holatini bilish, uning faqat oʻtmishini emas, balki kelajagini bilish uchun ham kalit boʻlib xizmat qiladi. Shu boisdan, jamiyatni boshqarishda ilmiy bashoratning metodologik va prognostik vazifalarini falsafiy jihatdan tadqiq etish hamda ilmiy-nazariy ahamiyatga ega boʻlgan xulosalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi. Zero, kelajakni bashorat qilish, oʻz navbatida, hozirgi davrning maqsad va vazifasini toʻgʻri belgilash shuningdek, jamiyatni boshqarish uchun ham asos boʻlib xizmat qiladi.

Jamiyatni boshqarish va uning kelajagiga doir mulohazalar nafaqat hozirgi davr odamlarini balki barcha davr odamlarini ham qiziqtirib kelgan.

Jamiyatni boshqarish muammosi qadimiy Yunon faylasuflari qarashlarida markaziy oʻrin tutadi. Platon asarlarida bevosita jamiyat boshqaruvi haqidagi mumtoz gʻoyalar ilgari surilib adolat, mardlik, vatanparvarlik kabi masalalar” ga e’tibor qaratilgan[2, 4]. Uning zamondoshi Suqrot fikricha, jamiyatda nimaiki qonuniy boʻlsa, oʻsha adolatdandir, u jamiyatga foyda keltiradigan narsalarni qadrli deb bilgan. Uningcha, “Nima foyda keltirsa, u qadriyatdir” [3, 351].

Qadimgi Yunonistonda fan taraqqiyotining ungacha boʻlgan barcha yutuqlarini umumlashtirib, oʻziga xos falsafiy ta’limot yaratgan Yunon faylasufi Aristotel bir necha asarlari bevosita jamiyat boshqaruviga bagʻishlangan. Uning fikricha, jamiyatdagi barqarorlikni ta’minlash ezgulikka qaratilgan amallarga asoslanadi [4, 71]. U ixtiyor erkinligini axloqning asosi sifatida olib qaraydi. “Hurmatga munosib boʻlish yoki yomon odam boʻlish insonning oʻz ixtiyoridadir” –deydi [5, 349]. Ushbu antik davr mutafakkirlarining jamiyat boshqaruviga doir yondashuvlari nafaqat oʻsha davr jamiyat boshqaruvini, balki, shu davr jamiyatining kelajak taraqqiyoti haqida ham mulohaza yuritganini oʻzida ifodalaydi.

Jamiyat boshqaruvi va uning taraqqiyoti haqidagi falsafiy mulohazalar Markaziy Osiyolik mutafakkirlari ijodida ham alohida oʻrin tutadi. Abu Nasr Farobiy jamiyat boshqaruvi haqida oʻziga xos yondashib jamiyatni fozil va johillarga ajratadi. Fozil shahar yuksak axloqli va ma’rifatli kishilar tomonidan boshqarilib, bu davlat shahar aholisining oʻzaro koʻmaklashuviga, bir-biriga yordam berishiga asoslanadi. Odamlarga nisbatan ularni birlashtirib turuvchi ibtido – insoniylikdir. Shu tufayli odamlar odamzod turkumiga oid boʻlgani uchun ham oʻzaro tinchlikda yashamoqlari lozim. U «Daraxtning yetukligi uning mevasi bilan boʻlganidek, insonning barcha xislatlari ham axloqiy tarbiya bilan yakunlanadi» — deydi [6, 122].

Buyuk sarkarda, sohib qiron Amir Temur mamlakatni ulkan bir chodirga oʻxshatadi. «Bu chodirni koʻtarib turuvchi ustunlari — adolatdir; chodirni tortib turgan arqonlar insofdir; chodirni mustahkam tutib turgan qoziqlar esa — haqiqatdir» -deydi.

Jamiyat va davlat munosabatlari masalasi Nikkola Makiavellining “Hukmdor” asarida ham oʻz aksini topgan. Asarda davlat rahbarining jamiyatdagi oʻrni belgilab berilgan. Makiavelli hukmdor oʻz fuqarolarining koʻproq mehr – muhabbatiga emas, qoʻrquviga erishishi kerakligini aytadi: “...qaysi biri yaxshi — xalqning hukmdorni sevganimi yoki undan qoʻrqqanimi? Aytishlaricha, birvarakayiga ham qoʻrqqani ham sevgani yaxshi; biroq mehr – muhabbat qoʻrquv bilan chiqisha olmaydi, shu bois tanlashga toʻgʻri kelganda, qoʻrquvni tanlagan durust. Zotan, odamlar haqida umuman hech qachon minnatdor boʻlmaydigan, beqaror, munofiq va yolgʻonchilikka moyil oʻz foydasini koʻzlab xatardan qochadigan jonzotlar deyish mumkin: toki sen yaxshilik qilib turar ekansan, ular butun borligʻi bilan seniki, sen uchun hamma narsasidan, qoni – jonidan ham, bola – chaqasidan ham, boyligidan ham kechishga tayyor. Lekin ishing tushganda, shu zahoti yuzini burib ketadilar. Bundan tashqari odamlar oʻzida mehr – muhabbat uygʻotgan kimsalardan koʻra, qoʻrquv uygʻotgan kimsani xafa qilishdan koʻproq tiyinadilar” [7, 384-349].

Yuqorida ta’kidlab oʻtilganidek, jamiyatni boshqarish va uning kelajagi masalasi barcha davrlar uchun eng muhim masalalardan biri boʻlib XX asrga kelib fan va texnologiyaning jadal rivojlanishi jamiyat kelajagiga doir konsepsiyalarni yanada koʻpayishiga sabab boʻldi.

Bu borada AQSHda — REND Korporatsiyasi, Gudzon instituti, kelajakdagi muammolar boʻyicha institut, Buyuk Britaniyada — Ijtimoiy tadqiqotlar Ittifoqi qoshidagi «Keyingi 30 yil komiteti». Germaniya federativ respublikasida— Vikkert nomidagi kelajakdagi iqtisodiy tadqiqotlar Instituti, Italiyada — amaliy iqtisodiy tadqiqotlar instituti, shuningdek, Berlin, Shvetsiya, Daniya, Norvegiya, Belgiya, Niderland, Shveysariya va boshqa mamlakatlardagi Kelajak markazlari olib borayotgan faoliyatni alohida ta’kidlash joiz.

1973-yilda Butunjahon kelajak tadqiqotlari federatsiyasi tuzilgani, Gʻarbiy Yevropaning deyarli barcha mamlakatlarida «Futuribl» (Fransiya), «Kelajak olami» (AQSH) va «2000 yillikda insoniyat» (Buyuk Britaniya) kabi prognozlashtirish boʻyicha mutaxassislarni birlashtiruvchi va xalqaro maydonda ish olib boradigan hamda turli mamlakatlarda filiallari ishlaydi milliy ilmiy jamiyatlarning tadqiqotlari ham bashorat qilish doiralarini kengaytirmoqda. Ularning barcha faoliyati jamiyat kelajagini ilmiy oʻrganish va boshqarishga xizmat qilmoqda.

Hozirgi davrda butun dunyoda, ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda zamonaviy tarixning asosiy tendensiyalarini bashoratlash masalalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Shu haqda ma’lumot berar ekan, f.f.d., professor J.Ramatov ta’kidlaydiki, bu borada zamonaviy jamiyatlarni isloh qilish, ya’ni ularni muttasil modernizatsiyalash yoʻli bilan ijtimoiy taraqqiyotni amalga oshirish tendensiyasiga katta ahamiyat berilmoqda.[8, 117]

A. Tofflerning “Uchinchi toʻlqin”, D. Bellning “Sanoatlashuvdan keyingi jamiyat”, Z. Bjezinskiyning “Texnotron davr” Dj. Nesbitning “Axborotlashgan jamiyat” konsepsiyalari bevosita jamiyat taraqqiyotini oldindan koʻrishga asoslangan boʻlib, jamiyatni ilmiy boshqarishga xizmat qiladi.

G.Forest va boshqalar ilmiy bashoratni “qaror qabul qilishning ilmiy asosi” sifatida baholaydilar, chunki u siyosatchilarga variantlarning oqibatlarini oldindan koʻrish imkonini beradi [9]. AQSH va Yevropa mamlakatlarida boshqaruv foresayti usullari davlat siyosatini shakllantirishda muhim oʻrin tutadi.

Nik Bostrom “Texnologik progressning tezlashuvi tufayli insoniyat hozir oʻz taraqqiyotining keskin burilish nuqtasiga katta tezlik bilan yaqinlashib kelayotgan boʻlishining ehtimoli katta. Insoniyatga yaxshi tanish boʻlib qolgan yadroviy xavf-xatar yoniga endilikda nano tizimlar va mashina intellekti kabi sohalarning jadal rivojlana boshlagan texnologiyalari misli koʻrilmagan oʻz imkoniyatlari va xatarlari bilan qoʻshilmoqda. Kelajak, agar u bor boʻlsa, bizning ana shu jarayonlarga munosabatimizga bogʻliq. Hamon biz jadal rivojlanayotgan texnologiyalarga bogʻliq ekanmiz, insoniyat jamiyatidan “post-insoniyat” (keyingi insoniyat) jamiyatiga oʻtish dinamikasini yaxshi anglab yetishimiz kerak. Ayniqsa tuzoq qayerda joylashganini, muqarrar oʻlimga olib borishi mumkin boʻlgan yoʻllarni payqay bilishimiz zarur.” – deydi[10].

Yuqorida keltirilgan adabiyotlar sharhidan ma’lum boʻladiki, ilmiy bashoratning metodologik vazifalari nazariy asoslarni shakllantirish bilan bogʻliq boʻlib. Birinchi navbatda, u jamiyat boshqaruvi jarayonlarni shakllantirish usullarini ishlab chiqishni oʻzida ifoda etadi. Mavzu doirasida antik davrdan boshlab hozirgi davrgacha boʻlgan jamiyat boshqaruviga doir mutafakkirlarning yondashuvlarni tarixiy va geografik nuqtai nazardan sistemali tahlil qilish va jamiyat boshqaruvini ilmiy oʻrganish asosida kelajak manzarasini yaratishga yordam beradi.

Shuningdek, ilmiy bashoratning nazariy asoslari ijtimoiy fanlarning bir qator paradigmalariga tayanadi. Struktur funksionalizm nuqtai nazaridan tizimning muvofiqlashuvini prognozlashga xizmat qiladi. Jamiyat boshqaruvida ijtimoiy prognozirovaniyeni oʻz ichiga oladi, kelajak oʻzgarishlarini doimiy ravishda kuzatish, ularni talqin orqali davlat idoralari uchun qarorlarni ilmiy asoslashni ta’minlaydi. Shuning bilan birgalikda, strategik qarorlarni ilmiy asoslashga, ijtimoiy xavflarni boshqarish, jamiyatning salohiyat va imkoniyatlarini baholashda muhim rol oʻynaydi.

Prognostik vazifalar ilmiy bashoratning amaliy tomonini ifodalaydi, ular kelajak ssenariylarini ishlab chiqish va xavflarni baholash bilan bogʻliq. Prognozikaning asosiy vazifasi – muqarrar va ehtimoliy variantlarni aniqlash, bu boshqaruvchilarga strategik qarorlarni qabul qilishda yordam beradi.

Demak ilmiy bashorat – bu ilmiy bilim va tajribalarga asoslangan holda voqelikning oʻzgarishi va rivojlanishi qonuniyatlarini hisobga olgan holda chiqariladigan ilmiy jihatdan asoslangan xulosalar boʻlib hisoblanadi. U fan va texnikaning ajralmas qismi boʻlib, milliy manfaatlarni ta’minlash uchun sistemalik yondashuvni taklif etadi. Ilmiy bashoratning rivojlanish strategiyasi metodologik asosga ega boʻlib, unda ontologik (voqelik tabiati) va gnoseologik (bilim nazariyasi) jihatlar muhim oʻrin tutadi. Ushbu jihatlar ilmiy bashoratning ilmiy bilish jarayonidagi oʻrnini belgilaydi va uning e’timodliligini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganimizda ilmiy bashorat jamiyatni boshqarishda metodologik va prognostik vazifalari orqali strategik rejalashtirishning asosiga aylanadi. Metodologik vazifalari nazariy asoslarni mustahkamlasa, prognostik vazifalari amaliy qarorlarni ta’minlab, jamiyat boshqaruvida qarorlarning samaradorligini oshiradi. Shuningdek jamiyatning prognostik vazifalari nazariy va amaliy jihatlarni birlashtirib, davlat siyosatini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

## Adabiyotlar/Литература/References:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida»gi Farmoni // Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

2. Aflotun. Qonunlar. –T: Yangi asr avlodi, 2002.,4 - bet.
3. Платон. Диалоги. — М.: Мысль, 1986.- С.351
4. Аристотель. Сочинения. В четырех томах. Т.4. М.: Мысль, 1983.- С.71
5. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika-T.:Yangi asr avlodi, 2012. – 349.
6. Qarang: Oʻzbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar. – T., “Oʻzbekiston faylasuflari Milliy jamiyati” nashriyoti. 2004 yil, 122-bet.
7. Макиавелли Н. Избранные сочинения. М., ИХЛ, 1982. С. 384-349
8. Раматов Ж. Ҳаётга фалсафий нигоҳ. – Тошкент: ILMIY TEXNIKA AXBOROTI, 2017. – Б.117.
9. Forecasting and Policy Making. ScienceDirect, 2013.
10. НикБостром - Ph.D., is Director of Oxford University's new Future of Humanity Institute.Угрозысуществованиючеловечества. Анализ сценариев вымирания. //2007. http://www.nickbostrom.com/

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ S/10 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).